

GENDER MUNOSABATLARDA AYOLLAR VA ERKAKLARNING TENG HUQUQLILIGI

Mamajanova Shaxnoza

Andijon davlat pedagogika insituti

*Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) yo'nalishi
2-bosqich magistranti*

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.12.2025

Revised: 21.12.2025

Accepted: 22.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Gender munosabatlar,
Huquqiy ong va huquqiy
madaniyat, Oilaviy
munosabatlar, "Ommaviy
madaniyat"*

ANNOTATSIYA:

Jamiyatimiz kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shu bilan birgalikda insonlarning huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor ham kuchaymoqda. Davlatimiz raxbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev har bir sohani yetakchisi bo'lgan holda jamiyatimizda yangi islohotlar, yangi huquq va erkinliklar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan jamiyatimizda eng asosiy masalalardan biri bu ayollar va erkaklarning teng huquqliligi va erkinliklaridir. Xususan, ayollar masalasi va ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, ularning yashash tarzi, ongi va tafakkuriga huquqiy ongi va madaniyatiga ta'sir o'tkazmoqda. Mazkur maqola orqali jamiyatimizda ayollar va erkaklar teng huquqlilig ularning jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligi, ularga davlatimiz raxbari tomonidan berilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

Kirish

Gender- xotin qizlar va erkaklarning jamiyatimizda teng huquqliligidir. Har sohada: siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, huquqiy, ta'lim hamda ilm-fan sohasida teng imkoniyat va huquqlarning tengligidir. Biz buni qisqacha qilib huquqlarning tenglashuvi desak ham bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasida ham bu sohaga alohida urg'u berilgan. Xususan, Konstitutsiyamizning 58-moddasida ham buni ko'rishimiz mumkin. Unda "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlaydi".

Gender tenglik- Ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilsa, teng munosabatda bo'linsa keyin gender tenglikka erishilasi. Bu erkaklar va ayollar jamiyatda qanday imkoniyati bo'lsa ularni nomoyon qilishda yordam beradi. Ma'lumki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari gender omillar ham madaniyat xususiyatlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, gender tenglikni ta'minlash, jamiyat hayotida iqtisod, siyosat, ilm-fan va madaniyat sohalarida barcha insonlar uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilishiga qaratilgan qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinmoqa. Jamiyatimizda qancha qonun chiqqani sari jinoyatlar ham shunga yarasha ko'payib ketmoqda. Ilgari maishiy deb hisoblanadigan oiladagi zo'ravonlik endilikda jinoyatlar sirasiga kiradi. Ayollar himoyasi bo'yicha 2019- yilda qabul qilingan qonun bor edi, lekin unda javobgarlik tog'risida hecha narsa mavjud emasdi. Lekin bugungi kunga kelib ma'muriy va jinoiy javobgarlik turlari mavjud.

Afsuski asrlar davomida ayol kishini xo'rlash, urish, so'kish, kaltaklash bizninh jamiyatda bir qadriyat, odatga aylanib qolgan edi. Urmasa erkak emas, degan tushuncha singdirilib borilgan edi. "Er bo'lgandan keyin uradida" deb, erning urishi odatiy holat deb qaralgan edi.

Metodologiya

Mamlakatimizda erkaklar va ayollarni tengligini ta'minlash maqsadida qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinmoqda . jumladan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolotlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan edi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019- yil 17- avgustda qabul

qilingan Senat tomonidan 2019- yil 23- avgustda maqullangan. Ushbu qonunning 5- moddasida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik haqida bayon qilinadi. Unga ko'ra:

“Xotin-qizlar va erkaklar davlat tomonidan kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Quyidagilar jins bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi:

bola tug'ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda farqlarni belgilash;

qonunda belgilangan tartibda muddatli harbiy xizmatga chaqirish;

ushbu Qonun asosida gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish;

xotin-qizlar va erkaklar mehnatini muhofaza qilishda ularning reproduktiv salomatligini saqlash xususiyatlari;

majburiyatlar faqat muayyan jinsdagi shaxslar tomonidan bajarilishi mumkinligiga asoslangan holda kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish;

qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlarini hamda huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarni tartibga solishda farqlarni belgilash;

xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijobiy choralar.

Natijalar

Ma'lumki, yurtimizda xotin-qizlarning va bolalarning ma'naviy va marifiy salohiyatini oshirish, sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etish, onalik va bolalikni har taraflama mustahkamlashga doir munosabatlarni tartibga solish va ularni hozirgi zamon talablariga monand qilib borilmoqda. Jamiyatda sog'lom ona bo'lsagina keyin sog'lom bola va sog'lom jamiyat barpo etiladi.

Mamlakatimizda insonning shaxs bo'lib rivojlanishida to'siq bolgan barcha to'siqlarni o'rganish va uni jamiyatdan surib chiqarish, shuningdek, jamiyatimizning barcha sohlarida gender tenglikni nimaligini yetkazib berish va shu orqali ijtimoiy imkoniyatlar yartib berish katta ahamiyatga ega. 2015- yilda Birlashgan Millatlar tashkilotining Gender tengligi va ayollarning huquqlari va erkinliklarini yuksaltirish bo'yicha hisobot tayyorlangan. Bu hisobot “BMT- ayollari” deb tanilgan.

Hisobotda ta'kidlanganidek, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda gender tengligi, ya'ni ayollar va erkaklarning tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiya ayollar va erkaklarga qaraganda maoshlaridagi farqlar 31 foizga

kam, Germaniyada 49 foizdan kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlashning asosiy talabi bu ishsizlikni bartaraf etish, ish haqqining tengligini ta'minlash masalalarini bartaraf etish orqali erishiladi.

Har bir millat va ellatning o'ziga yarasha ma'naviyatini shakillantirish va rivojlantirishda, jamiyatimizda oilaning o'rni va ahamiyat, ta'siri juda ham katta ahamiyatga ega va beqiyosdir. Oila vujudga kelishi bilan, ya'ni nikoh munosabatlari tartibga solinishi bilan er va xotin o'rtasida barcha munosabatlar vujudga keladi. Masalan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa munosabatlar. Ulardan eng ahamiyatlisi mulk munosabatlaridir. Nikoh tuzilishi bilan er va xotin o'rtasida mulk huquqi vujudga keladi. Ya'ni ular nikoh tuzilgandan keyin ortirilgan mol-mulk munosabatlarida teng huquqlidirlar. Er va xotin o'rtasidagi mulk huquqi Konstitutsiyamizda, Oila kodeksida va boshqa hujjatlarda tartibga solinadi. Oila kodeksining 5-bob. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari deb nomlanadi. Uning 23-moddasida. Er va xotinning umumiy mulki batafsil bayon qilinadi. Unga ko'ra: "Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi."

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda, eng avvalo er va xotin o'rtasida har biriga oid bo'lgan o'ziga qarashli bo'lgan mulklari belgilab olinadi. Keyinchalik esa umumiy mulkdan qaysilari er va xotindan bittasiga qiymati boshqasiga qarashli bo'lgan mulkdan ko'proq mulk, narsa buyum berilsa, er yoki xotinga mulkning farqli doirasida tegishli pul summasi berilishi belgilab qo'yilgan. Oila kodeksining 6-bobi Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi deb nomlanadi. 29-moddasi Nikoh shartnomasi haqida bayon qilinadi. Unga ko'ra: "Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi".

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Er-xotin o'rtasidagi mol-mulkka oid munosabatlar FHDYO da qonuniy nikohdan o'tmaganlarga tegishli emas. Faqat qonuniy er-xotinlar uchun amal qilinadi. Qonuniy

nikohdan o'tmagan shaxslar o'rtasidagi umumiy munosabatlar Fuqarolik kodeksida bayon qilingan umumiy mulk huquqi to'g'risidagi moddalarda belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, ayollar va erkaklar nikoh tuzilayotgan paytda yoki nikoh davomida o'z familiyalarini erkin tanlash huquqiga egadirlar. Bu ularning erkin tanlash huquqidir. Hohlasalar er yoki xotin ikovidan birining familiyasini erkin tanlashga huquqiga egadirlar. Bola tarbiyasida, oilaviy masalalarda bigalikda hamkor bolgan tartibda hal qilish huquqiga egadirlar. Erkin kasb tanlash, iqtisodiy masalalarda kelishgan holatda ish ko'radilar. Jamiyatimizda uchraydigan eng ko'p holatlardan biri agar iqtidorli va bilimli xotin-qizlar chet elda yoki o'zimizni davlatimizda o'qimoqchi bo'lsa ko'p holatlarda ota-onasi, yaqin qarindoshlari, yoki turmush o'rtog'i qarshi chiqadigan holatlar ko'p uchraychi. Bu holatni bartaraf etish uchun davlatimiz raxbari tomonidan ko'plab islohotlar qabul qilinmoqda. Xotin-qizlarga o'qishga kirgan taqdirda kontrakt summasini davlat tomonidan ma'lum miqdorda to'lab berilmoqda. Ularga ta'lim kreditlari ajratilmoqda. Kam ta'minlangan moddiy yordamga muhtoj, "Temir daftar", "Ayollar daftari" da turadiga xotin-qizlarga davlat tomonidan kontrakt summasi to'laligicha yoki xotin-qizlarning ehtiyojiga qarab, moddiy tomondan o'rganilib to'lab kelinmoqda. Bakalavr bosqichini tugatib, o'qishini davom ettirmoqchi ya'ni magistraturada o'qishini davom ettirgan taqdirda ularning kontrakt summasi to'laligicha to'lab berilishi belgilab qo'yilgan.

Muhokama

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlash borasida izchil choralar ko'rilmogda.

Shu bilan birga, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun keng shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fanga faol jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 02022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni hamda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni 3-bandining "b" kichik bandi birinchi xatboshisiga muvofiq

davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qarori 3-bandining "b" kichik bandi ikkinchi xatboshisiga muvofiq 2021/2022 o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning 2022/2023 o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdori Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin" deb belgilab qo'yilgan.

Davlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda Bank-moliya akademiyasining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qaytarish shartisiz qoplanadi.

Xulosa

Ayollarni jamiyatda mavqeini, hurmatini oshirish maqsadida ba'zi qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi. Ularning nafaqat jamiyatdagi balki oiladagi o'rnini tobora yuksaltirish choralari ko'rib borilmoqda. Er o'z xotinini haqorat qiladigan taqdirda yoki qadr-qimmatini yerga urgan taqdirda, 6mln so'm jarimaga tortilishi belgilab qo'yildi. G'arazli maqsad bilan kaltaklab, tanasiga og'ir tan jarohati yetkazadigan bo'lsa, 12 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortiladi. Bundan tashqari, ayolini haqoratlagan, so'kkan, qo'rqitganlar ham javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'lumki, oila jamiyatimizda kata ahamiyatga ega. Asosiy bo'g'in hisoblanib, davlat va jamiyatimiz tomonidan muhofaza qilinadi. Nikoh munosabatlari, xalqimizning ming yillik qadriyati bo'lib, milliy qadriyatlarga, erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi asosida quriladi. Bu jarayon ham mamkakatimizda erkak va ayolning huquqiy jihatdan gender munosabatlarda tengligini bildiradi. Er va xotin nikohdan so'ng farzandlik bo'lishadi. Bu masalada ham ular teng huquqlidirlar. Ota-onalar o'z farzandlari voyaga yetguncha, ya'ni 18 yoshga yetgunga qadar boqich va tarbiyalashga majburdirar. Shu bilan birgalikda ularni 11 yillik majburiy ta'lim olishiga, sog'lom bo'lishiga, har tomonlama yetuk va jamiyatimiz uchun foydasi tegadigan yetuk inson qilib tarbiyalashga majburdirlar. Otalik, onalik, bolalik davlat tomonidan himoya qilinadi.

Gender, avvalo ayollar bilan erkaklarning o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy psixologik tomonlarini va vazifalarini qamrab olishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir)
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (01.09.1998)
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR UCHUN TENG HUQUQ HAMDA IMKONIYATLAR KAFOLATLARI TO'G'RISIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan.
4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2022-yil 1- apreldan kuchga kirgan yangi tahriri)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (PF-87-son,, 2022- yil 7- mart)